

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**



Mirsaidova Nilufar

O'ta'yanov Ravshan

**(Qo'liqopli qo'g'irchoq)
O'quv-uslubiy qo'llanma**

QO'G'IRCHOQ

Boshqarish asoslari




791.53
4.53

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va sport ishlari vazirligi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Qo'g'irchoq teatri san'ati” kafedrası
o'qituvchilari Mirsaidova Nilufar,
O'taganov Ravshan

QO'G'IRCHOQ BOSHQARISH ASOSLARI

(Qo'lqopli qo'g'irchoq)
O'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent-2015

UDK 791.53

KBK: 85.337

M 53

Taqrizchilar:

Fatxulla Xo‘jayev

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
artist*

Doniyor Abdullayev

“Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati” kafedrası mudiri

Ravshan Isroilov

Respublika qo‘g‘irchoq teatri direktori

UDK 791.53

KBK: 85.337

M 53

Ushbu o‘quv qo‘llanma hozirda mavjud va chop etishga taqdim etilgan o‘quv adabiyotlariga qo‘shimcha tarzda kasbiy ta’limni yanada mukammalroq o‘rgatish maqsadida tayyorlandi. Kitobda berilgan ma’lumot va tavsiyalar aynan shu maqsadni ko‘zlaydi. Zero, qo‘g‘irchoq teatri san’atini talabalarga o‘rgatishda qo‘g‘irchoqlarni boshqarish san’ati birlamchidir. Simli qo‘g‘irchoqni boshqarish, boshqa qo‘g‘irchoq turlarini boshqarishdan ko‘ra tubdan farq qiladi. Ushbu manbada simli qo‘g‘irchoqni boshqarishdagi o‘ziga xos uslub va jihatlar alohida ko‘rsatilgan. Bu jarayon ilova sifatida berilgan, spektaklda va foto lavhalarda batafsil izohlangan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Kengashining 2015 yil 26 oktabrdagi qarori bilan nashrga tavsiya etildi (3-sonli bayonnoma).

© N. Mirsaidova, R. O‘taganov

KIRISH

Yurtimiz mustaqilligining e'lon qilinishi o'zbek teatr san'ati, xususan, qo'g'irchoq teatri faoliyati oldiga ham yosh avlodning ma'naviy, ruhiy olamini boyitish, dunyoqarashi, estetik didini tarbiyalash bilan bog'liq qator vazifalarni ko'ndalang qo'ydi.

Yangi avlod shuuriga mustaqillik, erk, ozodlik kabi tushunchalarni singdirish va qalbida ezgulik, vatanparvarlik g'oyalarini uyg'otish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri ekanligi hech birimizga sir emas. Yangicha dunyoqarashga ega, milliy o'zligini chuqur his etuvchi yosh avlodni voyaga yetishida milliy an'anamizga xos san'at turlari, jumladan, teatr san'atining o'rni beqiyos, ahamiyati katta. Ayniqsa, insonga nafasat tuyg'usini yoshlik chog'laridan boshlab singdirib borishga jajji yuraklarni ezgulikka, go'zallikka oshno qilishga qodir qo'g'irchoq teatri zimmasidagi vazifa g'oyat mas'uliyatlidir.

Bu yo'lda teatr ijodkorlaridan bugungi kun tomoshabinining ma'naviy ehtiyojlarini qondira oluvchi sahna asarlarini yaratish, fidoyilik, qizg'in munosabat, aniq g'oyaviy-badiiy yondashuv hamda yuksak mahorat talab qilinadi. Ayniqsa, badiiy obraz yaratishda (kasb asbob-anjomlari bilan faoliyat olib borish shartlari bilan bog'liq) qo'g'irchoq teatri ijodkorlari uchun professionalizm masalasi alohida ahamiyatga ega. Shu tufayli qo'g'irchoq teatri aktyorining faoliyati katta teatrlar aktyorining ijodiy jarayonda qo'llaniladigan ijro tamoyillariga birdek amal qilishlari lozim. Qo'g'irchoq teatri ijro uslubiylatining o'ziga xos uslubi, ya'ni "Aktyor, uning qo'llari – qo'g'irchoq" – o'ziga xos oluvchi va

beruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Qo'g'irchoq teatri aktyorini o'qitish, tarbiyalash va shakllantirish jarayonlari ham katta teatrlarga kadrlar tayyorlashdan ayrim jihatlari bilan keskin farqlanib turadi. Shu ayrim jihatlari ifodasi zahirida qo'g'irchoq teatri aktyorini tarbiyalashda ijodiy jarayonni texnik va texnologik tomonlari bilan yaxlit holda to'ldiradigan tasavvur yashiringan.

Qo'l harakati – qo'g'irchoq teatri aktyori ijodiy mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, qo'llarni professional harakat qila boshlashi – qo'g'irchoqning plastik xatti-harakatlari vositasida rolning ichki va tashqi mazmun mohiyatini ochish garovi hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatri san'atida aktyorning fikri – rejaları uning barmoqlari orqali harakat qilib, qo'g'irchoqda badiiy-sahnaviy yechimni kashf etishi lozim. Bu qo'g'irchoq teatr san'atining asosiy professional talabi hisoblanadi.

Qo'g'irchoq teatri turli ifoda shakliga ega ekanligi azaldan ma'lum. Qo'lga kiydirilib o'ynatiladigan qo'l qo'g'irchoqlar ("Kachal polvon" tipidagi), ochiq va yopiq namoyon qilinadigan simli qo'g'irchoqlar, iplar bilan boshqariladigan marionetkalar, sahna yuzida harakatlantiriladigan planshet qo'g'irchoq deb ataluvchi, ba'zida odam bo'yi barobar, ba'zida esa undan ham katta qo'g'irchoqlar, soya teatri qo'g'irchoqlari va boshqa qo'g'irchoqlarning harakatlarini, qo'llanish uslublari doimiy rivojlanishda, ijodiy izlanishda ekanligi kuzatib kelinadi. Zamonaviy qo'g'irchoq teatrida yuqoridagi barcha shakllarning asar g'oyaviy mazmuni, badiiy yechimiga bo'g'liq holda bir-biriga uyg'unlashib, badiiy sintez holatlari namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ayni damda 10 ta professional qo'g'irchoq teatrlari, ulardan tashqari joylarda havaskor va yarim professional turli mulkchilik shakllaridagi qo'g'irchoq teatrlari faoliyat yuritmoqda. Bu esa qo'g'irchoq teatri aktyorlarini o'qitish, professional kadrlar yetishtirish masalasiga alohida e'tiborni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi (1998-yil) Farmonida teatrlar uchun kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilash zaruriyati ta'kid etilganligi mazkur qo'llanma mavzusining dolzarbligini aniq va ravshan ko'rsatib turibdi.

Qo'g'irchoq teatri va qo'g'irchoqbozlar haqida juda kam yoziladi. Gazetalar va jurnallarda chop etiladigan maqola va taqrizlarda yoki ularga bag'ishlangan risolalarda asarning g'oyaviy, badiiy mazmuni, spektakllarning ayrim jozibalari qayd etiladi, ammo ular odatiy teatrlar asarlariga yozilgan taqrizlardan u qadar farq qilmaydi. Ma'lumki, zamonaviy qo'g'irchoq teatri spektakllarida qo'g'irchoqlarning turli sistemalari keng qo'llanilsa-da, maqolalarda ularga urg'u berilmaydi. Qo'g'irchoqlarni rassom, haykaltarosh qanday yo'nalishda yaratgani, mahorati, qo'g'irchoqboz aktyorlarning ijro usullari tahlil qilinmaydi. Qo'g'irchoq teatrlari aktyorlarining usullari, ularning barmoqdagi qanday mo'jizalar kashf etayotgani yoki ijro darajasi professional tarzda aktyor, uning turli sistemadagi qo'g'irchoqlarni harakatga keltirayotgan qo'llari faoliyati aks etmaydi. O'zbek qo'g'irchoq teatriga oid mavjud adabiyotlarda, masalan, M.Gavrilovning "Kukolniy teatr Uzbekistana" (1928 yil), M.Qodirovning "Xalq qo'g'irchoq teatri" (1972 yil), "An'anaviy teatr dramaturgiyasi" (2006 yil) va

boshqa ayrim risolalarda qo'g'irchoq teatri tarixi, ayrim asarlar va qo'g'irchoqboz aktyorlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shu bilan birga qo'g'irchoqlar turlari va ularning ijro uslubiylari, mahoratini shakllantirish jarayonlari haqida mulohazalar bildirilmaydi. Demak, qo'g'irchoq teatri aktyori bo'lishga ahd qilgan talabalarga ulardan olinadigan naf chegaralanadi.

O'quv-uslubiy qo'llanma mavzusi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" va "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedralari ilmiy-uslubiy rejalari bilan hozirgi vaqtda o'quv jarayonining ilmiy asoslangan metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashga oid ishlab chiqilgan standartlari bilan bevosita bog'liq.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma qo'g'irchoq teatri san'ati ifoda vositalari, ular orasidagi aloqadorlikni ta'minlovchi elementlarni, jumladan, qo'lqopli qo'g'irchoq ("Qo'l qo'g'irchoq") turini alohida o'rganish, uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, qo'lqopli qo'g'irchoqni harakatga keltiruvchi barmoqlar badiiy-sahnaviy obrazlar yaratishning asosiy omili ekanligini asoslashdan iborat.

Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatrlari soni va salmog'i jihatidan keskin taraqqiyotga yuz tutgani, yosh avlodning madaniyati va estetik saviyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligining e'tirof etilishi bunday olijanob vazifani faqat professional ta'lim olgan san'atkorlarga uddalay olishlarini nazarda tutgan holda, qo'g'irchoq teatri aktyori mahoratining asosini tashkil qiluvchi qo'llar ijro mahoratini o'rganish va unda mashqlar, mashg'ulotlarning hal qiluvchi ahamiyatini yoritish.

O'zbekistonda mavjud va bo'lajak qo'g'irchoq teatrlari ijodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

— o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixiy jarayonida qanday ijodiy-ijro usullari bo'lganini belgilash;

— qo'g'irchoq teatri aktyori ijrochilik texnikasining puxta va keng imkoniyatlarga egaligini dalillash;

— qo'l qo'g'irchoq turida aktyor, qo'l plastikasi yaratadigan, qo'g'irchoqning plastik harakatlari orqali qo'g'irchoq teatrida badiiy obrazlar taqdirini hal etishini ta'kidlash;

— yuqoridagilardan kelib chiqib, san'at o'quv maskanlarida kasbiy mahoratni egallashga yordam beruvchi texnik mashqlar va treningga e'tiborni oshirish zarur ekanligini isbotlash.

Qo'g'irchoq teatri aktyori mahoratiga oid o'quv dasturidagi mashqlar va trening tarkibida qo'l harakatlari o'rni va ularga beriladigan e'tibor qo'g'irchoqboz aktyorning ijro mahoratida uning qo'llariga yuklanadigan vazifalar mohiyatida o'z aksini topadi.

O'quv-uslubiy qo'llanma asosi — milliy istiqlol davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlari, Milliy ta'lim haqidagi qonun, qo'g'irchoq teatriga oid mutaxassislarning fikr-mulohazalaridan iborat bo'ldi. O'quv qo'llanma tariqasida muallif san'atlarning ijodiy jarayonda o'zaro hamkorligi va sintezlashuvi, o'zbek qo'g'irchoq teatr san'atidagi hozirgi holat va galdagi vazifalarini turli teatrlar faoliyatini qiyoslash va solishtirishda qo'llandi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qo'g'irchoq teatri aktyori ta'lim muammolarining ayrim jihatlarini o'rganish aspektida qo'g'irchoq tizimi va

undagi ijro uslubiylati o'rganildi. O'quv jarayonida ularning o'ziga xosliklari, obrazlarning plastik jihatlari, g'oyaviy-tematik, badiiy-estetik mazmuni, ifodaviylikning tasviriyl-texnik vositalari, shakllari, janriyl xususiyatlar bilan bo'g'liql vazifalarni mazkur sistemadagi ijodiy istiqbollar, shuningdek, ayrim kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari keltirib o'tilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma qo'g'irchoql teatri aktyori mahorati masalalarini tadqiq etishda uning muhim tarkibiy va barcha sistemalar uchun yetakchi hisoblanuvchi uslubiyati — qo'l qo'g'irchoql ijrochiligi maxsus o'rganiladi.

Qo'lqopli qo'g'irchoql turining ijro yo'llari imkoniyatlari ilk bor o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida maydonga olib chiqildi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma san'at yo'nalishidagi maxsus oliyl va o'rta maxsus o'quv yurtlari, kollejlari, akademik litseylari, professional va havaskorlik qo'g'irchoql teatrlarida aktyorlardagi ijro ko'nikmalari, bilimlarini shakllantirishda o'quv-uslubiy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

I BOB

QO'G'IRCHOQ TEATRI SAN'ATINING XUSUSIYATLARI

1.1. Qo'g'irchoq teatri – inson madaniyatining muhim qismi

Respublika qo'g'irchoq teatrining tashkil topganiga 66 yil bo'ldi. Hozirda respublikamizda 10 ta davlat qo'g'irchoq teatlari mavjud. O'tgan davr mobaynida qo'g'irchoq teatri san'ati nafaqat bolalarning, balki katta yoshdagilarning ham sevimli tomosha turiga aylandi, deb aytish mumkin.

Qo'g'irchoq teatri san'atiga mamlakatimizda bu qadar qiziqishning sabablari bisyor: eng avvalo, murg'ak qalblarni san'atga oshufla qilish, voqelikni estetik qabul qila olishlariga ko'maklashish, ularning milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga sodiq farzand qilib tarbiyalash. Eng muhim sabab esa qo'g'irchoq teatri repertuarining mazmunan rang-barangligi va uning texnikaviy imkoniyatlari kengayib, sayqal topib borayotganidir. Qo'g'irchoqlarning ijrochilik vositalari haqiqatdan ham juda kengayib bormoqda. Chindan-da, ko'pincha tomoshabin ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar emas, tirik, jonli mavjudotlar namoyon bo'lgandek tuyuladi, ular inson tomonidan yaratilgan qo'g'irchoq va faqat insonning qo'lidagina jonlanadi.

Qo'g'irchoq teatri juda oddiy va ixcham bo'lishi, murakkab dekoratsiyalaru buyumlarsiz ham bo'lishi mumkin. Albatta, maxsus binoga, ko'p sonli aktyorlar truppasiga va keng imkoniyatlarga ega Respublika qo'g'irchoq teatri kabi jamoalar ham bor. Ammo imkoniyati cheklangan ijodiy ishlab chiqarish

imkoniyatlari kamtarona ko'rinadigan teatrlar ko'proq deyish mumkin.

Qo'g'irchoqlar ham jajji, bir qo'lga kiyib ketadiganidan tortib, odam bo'yi barobar va undan ham katta bo'ladilar. Ular turli yo'sinda boshqariladi. Ularning tanasini qo'lga qo'lqop singari tortib kiyib olib gavdalantirish, ba'zilarini pastdan qo'g'irchoq teatri sahnasi ostidan qilgan maxsus teshiklar orqali boshqarish mumkin bo'lsa, boshqa turini, aksincha, tepadan turib iplar vositasida boshqariladi, ba'zilarini boshqarish uchun esa qo'ltayoqchalar yoki simlardan foydalaniladi, ularning tuzilishi juda murakkab bo'ladi va ularni boshqarishga bir necha aktyorni jalb qilishga ham to'g'ri keladi.

Shuni aytish kerakki, qo'g'irchoq o'yini yer yuzida eng qadimgi tomosha san'atlaridan biri va dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika xalqlarida o'zlarining elga mashhur qo'g'irchoq qahramonlari bor. Vaqti-soati kelib jahon teatrining maroqli tarixi, oddiy qo'g'irchoq o'yinining ulkan va murakkab san'at darajasiga yetishi jarayonlari haqida kitoblar yozilishi, shubhasiz.

Jahon qo'g'irchoq teatrlari qahramonlarining davrasi juda keng. Italiyada Punchinella, Angliyada Panch va Djudi, Rossiyada Petrushka, Chexiyada Kashparek obrazlari. Ular davrasida bizning milliy qo'g'irchoq teatrimiz qahramoni Kachal polvonning ham munosib o'rni bor. Qo'g'irchoqlar turli millat vakillari obrazlari bo'lsalar-da, tabiatlarida, xarakterlarida ko'p umumiy xususiyatlar mavjud. Ular bari sho'x, tili o'tkir, hamma vaqt zolimlarga, riyokorlarga, shaytonu alvastilarga va hatto o'limga ham keskin salbiy munosabatlari bilan

odamlar dilini topganlar, shodlik va xushchaqchaqlik ulashganlar. Ruhan ular bir-birlariga juda yaqin.

Xalq qo'g'irchoq teatr san'atining ushbu va yana ko'plab qahramonlari, an'analari zamonaviy qo'g'irchoq teatrlari faoliyatida taraqqiy topgan texnik imkoniyatlar va rivojlangan estetik tafakkur tufayli sayqallanib, qo'g'irchoq teatrlaridagi murakkab jarayonlarda o'z o'rniga ega bo'lib kelgan.

Ma'lumki, barcha san'atlar, shu jumladan, qo'g'irchoq teatrining ham umumiy maqsadlari bor. U ham bo'lsa, K.S.Stanislavskiy iborasi bilan aytganda, "Har bir san'at turi o'z ifoda vositasiga tayanib inson ruhiyati, hayotini gavdalantirishdan iborat".

Haqiqatdan ham poeziya va prozada, dramaturgiya, musiqa, raqs, shuningdek, qo'g'irchoq teatrida ham turli usullar bilan amalga oshadigan badiiy ijod asarlarida inson ruhiyati, hayoti turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Inson badiiy ijod jarayonida o'zini hayajonlantiradigan, hamma vaqt o'ylantiradigan eng muhim narsa, ya'ni o'zining insoniylik mohiyatini idrok qilish va ifodalashga intilib yashaydi. Hayotning mazmuni, o'zining atrof-muhit bilan chambarchas rishtalarini tushunib yetishga va uni badiiy aks ettirishga intiladi. Shuning uchun har bir san'at asari ijodkorning hayotni subyektiv idrok etishi va dunyoni his etishi samarasidir.

Har bir san'at turida ma'lum darajada shartlilik, umumlashtirishga moyillik xususiyatlarini kuzatish mumkin. Bu belgilar ayniqsa, qo'g'irchoq teatri san'atida bo'rtib turadi, hatto uning xos belgilari sifatida e'tirof etiladi. Aytaylik, Kachal polvon, Xo'ja Nasriddin kabi obrazlar juda serqirra bo'lib, ular xilma-xil mulohazalarni tug'diradi.

Qo'g'irchoq o'z tabiatiga ko'ra aynan shunday yig'ma-umumlashmalarga ko'proq moyil. Agar shu xususiyati ochilmay qolsa, qo'g'irchoq obrazi kemptik bo'lib qoladi. Jonsiz, insonga oid ko'p belgilardan mahrum qo'g'irchoq, obrazning mag'zinigina, asosiy xususiyati va mohiyatinigina ochishga ko'maklashadi.

Qo'g'irchoq teatri haqida gapirilganda, shartlilik atamasi ko'p ishlatiladi. Shartlilik tushunchasi keng ma'noga ega. Avval aytganimizdek, u san'atning barcha turlarida uchraydi. Biroq, qo'g'irchoq teatrida u mohiyatli mazmunga ega. Qo'g'irchoq obraz, masalan, barmoqqa kiydirilgan tor, sirdan "o'xshamagan" holda inson sifatida "qabul qilinishi" kabi xususiyatlarga egaki, bu uning "shartliligi" va "umumlashgan"ligining dalilidir. Uning yana bir xususiyati tinimsiz harakat qo'g'irchoqqa xos vosita sifatida qabul qilinishidir.

Qo'g'irchoqning "shartli" tabiati, undagi majozilik, ijodkor xayolotiga va badiiy to'qimalarga keng imkoni mavjudligi, qo'g'irchoqni ertak, adabiyotga juda yaqin aloqador qiladi. Bolalar va teatr ertaga bir-birlari bilan mushtarak holda bo'ladilar.

Qo'g'irchoq teatrining yana bir o'ziga xos xususiyati qisqalik, lo'ndalik. Lo'ndalik – detallarda chegaralanish, cho'zmaslik. Lo'ndalik shunchaki qisqalik, ixchamlik bo'lmay, balki sermazmun ifoda ma'nosida, ozu soz sifatida talqinga ega.

Qo'g'irchoq teatrining asosiy qonuniyatlari va ijodiy quvvati haqida gap ketganida, yana bir muhim belgi – uning o'ziga xos dramaturgiyasini nazarda tutamiz.

1.2. Teatr qo'g'irchog'i

Teatr qo'g'irchog'i – qo'g'irchoq teatrining bosh mohiyati, uning o'ziga xosligining asosi. Qo'g'irchoq teatri sahnasida harakatlanuvchi har bir jism spektakl ijrochisi – qo'g'irchoq sifatida qabul qilinishi mumkin. Aktyor tomonidan harakatlantirilgan, “jonlantirilgan” istalgan jism (gul, yoritgich, shisha idish, mehnat qurollari va h.k.), butafor tomonidan turli-tuman materiallardan tayyorlangan narsalar ham ijrochi qo'g'irchoq sifatida qabul qilinishi mumkin.

Teatr tomoshalari uchun maxsus tayyorlanadigan, murakkab qurilmalardan tashkil topadigan qo'g'irchoq turlari ham mavjud.

Teatr qo'g'irchog'ining kelib chiqishiga oid birinchi tadqiqotlar XIX asrlardayoq ma'lum bo'lgan.

1842-yili fransuz yozuvchisi Sh.Node qo'g'irchoq teatrining kelib chiqishini insonning “bolalik” pallasiga bog'liqligi g'oyasini o'rta tashlaydi. Unga ko'ra birinchi bo'lib qo'g'irchoqni “birinchi qiz bola” o'zining tabiiy onalik instinktiga muvofiq kashf etishi bo'lib chiqdi. Qizchaning o'z qo'g'irchog'i bilan munosabatlari esa qo'g'irchoq teatri san'atining proobrazi, qo'g'irchoqbozning o'zi esa maniketning proobrazi sifatida talqin qilingan edi.

Oradan biroz muddat o'tib fransuz arxeologi Sh.Manyan mutlaqo zid talqinni ilgari suradi. Bu gipotezaga muvofiq, qo'g'irchoq johiliyat davri odamlari o'zlari yasab olgan “xudo”larini jonlantirish, ularni harakatga keltirishga intilishlaridan kelib chiqqan. Har ikki gipoteza juda ko'p tortishuvlar, bahs-munozaralar keltirib chiqaradi. Lekin XX asrga kelib madaniyatshunoslikning rivojlanishi bu qarashlarga

muhim aniqliklar kiritadi va umuman, teatr, jumladan, qo'g'irchoq teatrining ham kelib chiqishi xalqchil urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar bilan bog'liqligini asoslaydi. Qadimiy urf-odatlar, ibtidoiy tafakkur, mifologiyaning ildizlari o'rganilishi, qo'g'irchoqlarning sirtidan "o'yinchoq" sifatida ko'rishga qaramay, aslida insonning narigi dunyo haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq (xronik) mavjudot degan xulosa qaror topadi. Barcha xalqlar (osiyoliklar, afrikaliklar, qadimiy yevropaliklar, avstraliyaliklar, Shimoliy Amerika hindulari, slavyanlar va boshqalar)da qo'g'irchoqlar aslan marhumlar va ruhlar dunyosiga mansub bo'lganlar. Ularda odamlarning o'tib ketgan ajdodlarga munosabati aks etgan, qo'g'irchoqlar tiriklarga mansub bo'lmagan ishlarni qilishga haqli hisoblanganlar. O'tmishda mansub ekanliklari qo'g'irchoqlarning tashqi qiyofalarida ham ifodalanar edi, ular grotexsli (bo'rttirilgan), ko'pincha badburun, juda g'alati, maxsus moslama vositasida chinqiriq tovushlar bilan "gapiruvchi" bo'lib, uch-to'rt xil mavjudotlar belgilarini ham qamraganlar. Zotan, qadimgi tafakkurga binoan, aynan mayib-majruhlik, nomutanosiblik narigi dunyoga munosiblikning ifodasi sifatida qabul qilingan. Qo'ldopli qo'g'irchoqlar tarixchilar ma'lumotiga ko'ra qadimgi yunonlarning ko'cha tomoshalari – balaganlarda ko'zga tashlanar ekan. Hatto, tadqiqotchilar qo'g'irchoq teatrining antik tragediya bilan bevosita aloqador degan mulohazani bildirganlar. Ma'lumki, antik teatrdagi aktyorlar niqob orqali xarakter yaratganlar, o'z qahramonlari kechinmalarini koturn (belgi)lar bilan ifoda qilganlarki, natijada asr qahramonlari xatti-harakatlarida notabiiy plastika shartlilik tomoshabinlarga tushunarli bo'lgan. Insonning qo'g'irchoq bilan ibtidoiy munosabatidagi

ayrim tizimlarni zamonaviy teatr amaliyotida ham uchratish mumkin. Masalan, professional qo'g'irchoqboz ustalar qo'g'irchoqni yasab bo'lgach, uni stol ustiga tashlab, qo'g'irchoq qanday tushishiga qarab u o'z hayoti bilan yashay oladimi, yo'qmi? Shuni taxmin qilar ekanlar. Yoki qo'g'irchoq yasash jarayonida ko'zini ochish esa so'nggi ish hisoblanar, binobarin, shundan keyingina qo'g'irchoqqa jon kirar emish, undan keyingi qo'g'irchoqni qiyofasini to'g'irlash ishlari uning "joni"ni og'ritar ekan.

Teatr qo'g'irchoqlarining spetsifik turlari Verxovaya (tepa) qo'g'irchoqlar yangi spektakl vaqtida qo'g'irchoq shirmaning ustida ishlayotgan aktyordan yuqorida uning tepasida bo'lishini anglatadi. "Verxovaya" atamasi rus xalq qo'g'irchoqbozlari tomonidan Marionetkaga qarshi ma'noni bildiruvchi tushuncha sifatida iste'molga kiritilgan. Verxovaya (tepa) qo'g'irchoqlar o'z navbatida bir necha turlarga ega. Ulardan birinchisi Oo'lqopli qo'g'irchoq bo'lib, qo'g'irchoqbozning qo'liga kiydirilib barmoqlari bilan boshqariladi. Ikkinchisi, Trostevaya (simli) qo'g'irchoq bo'lib, qo'lqopli qo'g'irchoqdan tashqi jihatidan ham boshqarilish usuli bilan farq qiladi. Qo'g'irchoq – marionetka qurilmasi jihatidan tepa qo'g'irchoqlardan tubdan farqlanadi. Marionetka atamasi fransuzcha "Magyup", "Mapopepe" so'zidan olinib o'rta asrlar qo'g'irchoq miserikshtarda Bibi Maryamni tasvirlagan jajji haykalchalar shunday atalgan. Ular Nevropast deb ataluvchi aktyor qo'g'irchoqboz tomonidan tepadan turib, iplar yoki simlar vositasida boshqarilgan. Engoddiy marionetka sim chiviqli bo'lib, uning boshi va tepasi odatda yaxlit ishlanib, mahkam birlashtirilgan, oyoqlari va qo'llari erkin harakatlangan. Marionetka simli

qo'g'irchoqqa qaraganda ancha murakkab konstruksiyadan iborat bo'ladi.

Yana avtomat deb ataluvchi mexanik qo'g'irchoqlar rezinalar, prujinalar, bug' va shunga o'xshash vositalar bilan jonlanuvchi qo'g'irchoqlar turkumiga kiradi. O'z-o'zicha harakatlanuvchi, ichiga simob quyilgan qo'g'irchoqlar, masalan xitoy qo'g'irchoqlari ham ma'lumki, ularning markazida joylashtirilgan simob turli holatlarda harakatlanish imkonini beradi. Bunday qo'g'irchoqlar, jumladan, Y.Oleshnning "Uch baqaloq", G.H.Andersenning "Bulbul" hikoyasi asosida qo'yilgan spektakllarda qo'llanilgan. Biroq bunday avtomat qo'g'irchoqlar qo'g'irchoq teatrida kamdan-kam holatlarda ishlatiladi, chunki bu vaziyatda aktyorning funksiyasi minimal holatga kelib qoladi. Bugungi kompyuter o'yinlarining avlodi deyish mumkin. Haybatli deb ataluvchi qo'g'irchoqlar odam bo'yi va undan ham katta bo'lishi mumkin. Bular aslida boshi butafordan yasalgan bo'lib, butun gavdasi ichiga aktyor joylashadi. Antik teatr aktyorlarini shu qo'g'irchoqlarning prozasi deyish mumkin, bular aslida boshi butafordan yasalgan bo'lib, aktyor niqob va kiyim belgilari vositasida obraz yaratar edi. Shunday qilib, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida aktyor bilan aloqadorlikda har qanday predmet ham "ishlay olishi", obrazga aylanishi mumkin.

1.3.Repertuar tanlash

Qo'g'irchoq teatri uchun yoziladigan pesalarning o'ziga xos xususiyatlari u yoki bu pesa qo'g'irchoq teatri repertuariga kiritilishida asosiy ahamiyatga molik shart hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatri uchun maxsus yozilgan pesalardan tashqari, ba'zan dramaturgik yoki musiqiy

teatrlar uchun yozilgan pesalarni moslashtirish ham mumkin bo'ladi. Teatr rahbariyatida ba'zan biror bir hikoya yoki ertakni inssenirovka qilishga ehtiyoj tug'iladi, hatto teatr ijodkorlarining o'zlari teatrlari uchun dolzarb mavzularda pesalar yozishlari ham mumkin.

Qo'g'irchoq teatri pesasiga nisbatan umuman pesalarga oid barcha talablarni, ya'ni mavzuning dolzarbligi, qiziqarli qurilgan syujet, pishiq xarakterlar va yaxshi ifodali tilni qo'llash kerak. Ayni vaqtda shunday spetsifik o'ziga xosliklar borki, faqat ularning mavjudligini pesani "qo'g'irchoq" yoki "noqo'g'irchoq" tabiatini belgilashi mumkin. Bunday xususiyatlarni aniqlashda ham qandaydir kalitlar bo'lishi qiyin. Chunki kecha "qo'g'irchoq" tabiatiga shubhali ko'ringan pesa bugun qo'g'irchoq teatrida o'z sahnaviy mujassamini topib qolishi mumkin. Yoki, aksincha, kuni kecha "qo'g'irchoq pesa" sifatida talqin qilingan pesa bugun "eskirib", yaramay qolishi mumkin. Bunda rejissyor fantaziyasi va aktyor mahorati tufayli doim yangiliklar, yangi ijodiy topilmalar har qanday pesa taqdirini hal eta oladi.

Lekin shunday bo'lsa-da, qo'g'irchoq teatri pesasida syujet asosiy mezon personajlarning tomoshaviy xatti-harakatlari asosiga qurilishi qo'g'irchoq pesaning eng muhim spetsifik belgisidir. Voqealari dialoglar bilan yoritiladigan pesalar, qo'g'irchoq teatri sahnasida muvaffaqiyat qozonishi qiyin. Ayniqsa, qo'lgopli qo'g'irchoqlar qiziqarli va keng ko'lamli xatti-harakat qilish imkonini berishi tufayli so'zli faoliyatni bir muncha ko'tarishi mumkin, ammo simli qo'g'irchoqning ham imkoniyatlari cheklangan emas. Albatta, har ikki holda ham qolip, qattiq o'rnatilgan qoida bo'lishi mumkin emas.

Ixcham dialoglar bilan jajji sahnalarni mahorat bilan ijro qilish mumkin.

Teatrda tomoshaviy xatti-harakatlarga boy pesa tanlashda, qo'g'irchoqning jonli mavjudotlarning barcha xatti-harakatlarini bajarishga qodir emasligini ham yodda saqlash kerak bo'lgan. Shuning uchun rejissyor va rassom pesa bilan tanishuvda qo'g'irchoq nimani amalga oshira olishiga alohida e'tibor berishlari va uning ijro vositasini avvaldan belgilashlari zarur. Qo'g'irchoq pesaning g'oyaviy mazmuni, badiiy jihatlari qo'g'irchoq teatri san'atida hozirda mavjud barcha turkumlardan istaganini qo'lga kiydiriladigan qo'lqopli ("Petrushka" tipida) qo'g'irchoq, simli qo'g'irchoq, iplarga bog'langan "marionetka", sahna planshetida harakat qiladigan katta qo'g'irchoq yoki soya teatri vositasini, yoki bir necha turini jamlab qo'llanishni taqozo qilishi mumkin. Zamonaviy qo'g'irchoq teatri amaliyotida ko'proq turli sistemalarni, turli usullar va vositalarni g'oyat erkin tarzda birlashgan, sintez holatlar kuzatiladi. Hamma gap ana shu sintez, ana shu jamlamalar qo'g'irchoq teatrining asl tabiatini, qo'g'irchoq pesasining mazmun-mohiyatini teran gavdalantirishga yo'naltirilgan bo'lmog'i kerak, aks holda qo'g'irchoq teatrining texnik imkoniyatlari, turli usul va vositalarning quruq namoyishiga, ko'z-ko'z qilishga aylanib qolishi mumkin. Tanlanadigan pesa qo'g'irchoq teatri san'atiga xos bo'lgan xususiyatlarga monand bo'lmog'i zarur. Bunday xususiyatlarning birinchisi va eng asosiysi qo'g'irchoq teatrida jonsiz jismlar jonlanadi va harakat qiladi. Ularning hammasi ham insonni tasvirlashi shart emas, ular ma'lum bir obrazni gavdalantira olishlari kerak. Muhimi, jonlanishlar

tomoshabin ko'z o'ngida sodir bo'ladi va unga zavq-shavq baxsh etadi.

Pesaning "qo'g'irchoq" tabiatini belgilashda qo'g'irchoq xarakterini umumlashmalik darajasi g'oyat muhim rol o'ynaydi. Tanlangan pesa uchun reja tuzadigan rejissyor va rassom mulyaj, odam yoki biror mavjudotning o'lik nusxasini emas, balki umumlashma obraz yaratishga, buning uchun eng muhim, eng ifodali belgilarni aks ettiradigan obraz yaratishga harakat qilishlari kerak.

Qo'g'irchoq umumlashma obraz darajasiga ko'tarilmasa, odam yoki hayvonni naturalistik taqlid usuli bilan o'xshatsa, mo'jiza yuz bermaydi, badiiy jarayon kuzatilmaydi, san'at asari tug'ilmaydi.

Qo'g'irchoq teatri san'atining yana bir muhim jihati qochirim, kinoya, majoz kabi vositalarni qo'llashga ham pesada asos, zamin bo'lishi kerak. Binobarin, qo'g'irchoq faqat odamni emas, hayvonlarni ham, turli-tuman jismlar va shamol, bo'ron, dovul singari tabiiy hodisalar va hokazolarni bari o'z mohiyatiga ko'ra insoniy xarakterlarni ifoda qiladi. Shuning uchun ham ertaklar, rivoyatlar va masallarda jism va hodisalarning nutqlari bo'lib ular insoniy xarakterlarga ega bo'lishi bejiz emas. Demak, rejissyor va rassom qo'g'irchoq teatrida pesadagi voqea-hodisalarning g'oyaviy-badiiy mag'zini ochish uchun metafora, ya'ni istiora, kinoya shaklini topish zarur.

"Qo'g'irchoq" tabiatli pesa rejissyor va rassom hamda aktyordan spektaklning va har bir obrazning plastik yechimini topishni ham asosiy muammolardan biri sifatida taqozo qiladi. Spektaklning plastik yechimi, ya'ni qo'g'irchoqning xarakter va xatti-harakatlari majmual, uning shirmadagi yashash tarzi pesa va unga rejissyor beradigan talqindan kelib chiqadi. Qo'g'irchoq teatri

repertuariga pesa tanlash, ayniqsa, katta yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallangan pesaning munosibini topish ancha mushkul jarayon. Qo'g'irchoq teatri uchun maxsus pesa yozadigan dramaturglar soni barmoq bilan sanarli. Lekin, qo'g'irchoq teatri repertuari muammolari dramaturgik materialning kamligidan ham ko'ra, rejissyorlarning passivlik, ijodiy izlanishlari talab darajasida emasligining oqibati deyish mumkin. O'z vaqtida Latviya qo'g'irchoq teatrida Brextning "Uch mirilik opera", Sankt-Peterburg katta qo'g'irchoq teatrida Ekzyuperining "Jajji shahzoda" kabi pesalarining muvafaqqiyatli yechim topganligi qo'g'irchoq teatri san'atining jahon adabiyoti durdonalariga murojaat qilish imkoniyatlari cheksizligini ko'rsatadi.

Lekin bunday ijodiy jasorat kamdan-kam teatrlarda uchraydi. O'zimizning Respublika qo'g'irchoq teatrimizda G.H.Andersenning "Gugurt sotuvchi qiz" hikoyasi asosida rejissyor D.Yo'ldoshevaning yozgan va sahnalashtirgan "Yana o'sha Andersen" spektakli ana shunday ijodiy jasoratlar sirasiga kiradi.

1.4. Plastika va uning qo'g'irchoq teatridagi o'rni

Plastika deganda biz faqatgina aktyorning plastikasini tushunmasligimiz kerak. Plastika hayotda yurish-turishimizda va xatti-harakatimizda, har qadamda uchraydi. Plastika faqatgina aktyorlar uchungina emas, balki har bir san'atkorda, turli kasb egalarida, jonzodlarda o'ziga xos plastika mavjud va uni istaydimi-yo'qmi o'zi bilgan va bilmagan holda ishlatadi. Hayvonot olamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir hayvonning o'ziga xos plastikasi bor, bu plastika egalari tana jihatidan bir-birlariga o'xshamasa ham ularning plastikalari bir-biriga

juda o'xshash bo'ladi. Bunga misol qilib mushukning plastikasini oladigan bo'lsak, tanasining hajmi jihatidan mushuksimonlar oilasini a'zolari bir-biridan yiroq bo'lsa ham bu oila a'zolarining plastikasi, tuzilishi bir-biriga o'xshaydi.

Plastika turlariga aktyorning qo'l plastikasi, oyoq plastikasi, yuz plastikasi, ko'z plastikasi, tana plastikasi kiradi. Nafaqat aktyor yoki aktrisaga, balki butun mavjudotning ana shunday plastikasi bor. Plastika san'ati asosan san'at sohasidagilar uchun muhim rol o'ynaydi. San'atkor bo'laman, deb o'zining oldiga vazifa qo'ygan har qanday odamdan plastika san'ati juda katta mas'uliyat va tajriba talab qiladi. Masalan, dirijyorlik san'atini oladigan bo'lsak, dirijyorlarda qo'l plastikasi o'ta muhim ahamiyatga ega. Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri yoki Alisher Navoiy nomidagi opera va balet katta teatrlarida orkestrlar mavjud. Umuman orkestrni qayerda ko'rmaylik, uni boshqarib turuvchi dirijyorlarga ko'zimiz tushadi. Agar dirijyorning qo'l plastikasi yaxshi bo'lmasa, qo'l plastikasi bilan bog'liq bo'lgan mashq va shartlarni bajarmasa, har qanday ma'nosi chuqur bo'lgan spektaklni ham, operani ham, baletning ham mazmuni yo'qqa chiqishi mumkin. Shuning uchun san'atkorlar uchun plastika san'ati va plastika suv va havodek zarur. Agar plastika san'atini mukammal egallay olmasa, plastika nimaligini tushunib yetmasa, bu san'atkor hayotda ko'p to'siqlarga duch keladi.

Qo'g'irchoq teatrida plastika san'ati muhim rol o'ynaydi. Qo'g'irchoq teatrining ashaddiy muxlislari bu bolajonlar, agar biron-bir aktyor yoki aktrisa deylik ilon obrazini yaratishi kerak, buning uchun aktyor, eng avvalo, shu hayvon to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi

kerak. U obraz qanday, hayvon qanday yuradi, qanday turadi va qanday ovqat yeydi, xatti-harakati, xususiyatlarini aniq bilishi kerak. Aktyor biron-bir obraz yaratish uchun yoki yaratishdan oldin olingan roldagi plastikani topishi va bilish kerak.

Aktyor eng avvalo qilayotgan ishiga o'zi ishonishi kerak. Berilgan shart-sharoitdan "Men qaysi obrazni gavdalandiraman?" deb o'z oldiga maqsad qo'yib, ana shu maqsadga intilib ishlashi kerak. U o'zini ishontira olsa, men aktyor emasman, men ilonman, deb shu jonivorni obraziga kira olsagina, jajji tomoshabinlarni ishontira olishi mumkin. Bunday yuqori tajribaga ega bo'lish uchun tegishli oliygohlarni o'qib tamomlash kerak. Oliygozlarda aktyorning plastik mahoratini oshirish uchun plastika darslari o'tiladi. Ustozlarning saboqlarini va plastika san'atini mukammal egallagan talaba kelajakda professional aktyor yoki aktrisa bo'la olishi mumkin. Kelajakda men qo'g'irchoq o'natuvchi aktyor bo'laman, degan talaba eng avvalo plastika nimaligini tushunib yetishi va uni mukammal egallashi kerak bo'ladi.

1.5. Qo'ldopli qo'g'irchoqning qo'ld plastikasi bilan bog'liqligi

Qo'ldopli qo'g'irchoqning qo'ld plastikasi bilan bog'liqligi umuman qo'g'irchoq aktyori yoki aktrisa uchun qo'ld, oyoq, tana, yuz plastikalari juda muhim. Qo'ldopli qo'g'irchoqni o'ynatish uchun qo'ld plastikasi qancha yaxshi shakllangan bo'lsa, u shuncha chiroyli va ma'noli bo'ladi. Boshqa bir yo'nalishdagi san'atkorlar, aktyorlar, aktrisalar va raqqosalar bajaradigan oyoq, qo'ld, yuz, tana, ko'z va boshqa plastikalarini qo'g'irchoq aktyori yoki aktrisalari qo'ld bilan ko'satib

berishlari kerak. Qo'ldopli qo'g'irchoqlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, jonivor, odam bola-qiz yoki turli jonsiz buyumlar qo'ldopli talqinda yasalishi mumkin. Qo'g'irchoqning mexanizmini ishlata bilish, qanday qo'g'irchoq bo'lsa shunga yarasha uning plastikasini izlab topish va chidamlilik kerak bo'ladi. Agar podshoh obrazida qo'g'irchoq qo'ldopli bo'lsa qo'g'irchoqning katta-kichikligiga qarab uning o'ziga xos vazni va og'irligi bo'ladi. Agar aktyor yoki aktrisaning qo'l plastikalari rivojlanmagan bo'lsa, uning qo'li charchab, tolib boradi. Shunda qo'g'irchoq o'z-o'zidan tomoshabin uchun saviyasi yo'qoladi va bu spektaklga zarar bo'lishi mumkin. Shuning uchun aktyor yoki aktrisa qo'l, tana va boshqa plastikalarga oid mashqlarga jiddiy e'tibor qaratishi kerak. Agar bir jonivor qo'ldopli qo'g'irchoqda tasvirlansa bu qo'g'irchoq aktyor yoki aktrisadan katta mahorat talab qiladi. Chunki o'sha jonivorning barcha xatti-harakatlarini aktyor ikki qo'lida bajarishi va ko'rsata olishi kerak. Boshqa teatrlardan qo'g'irchoq teatrining murakkabligi ham shunda bo'lsa kerak. Qo'g'irchoq aktyori drama, musiqali drama, estrada yo'nalishidagi aktyor bo'la olishi mumkin, lekin har qanday san'atkor qo'g'irchoq aktyori bo'la olmaydi.

II BOB

QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORINING ALOHIDA XUSUSIYATLARI

San'atning har turi uchun xos bo'lgan qonuniyatlar, uslublarga tayangan holda, ijodkor asar yaratadi, tomoshabin uni tinglaydi, ko'radi, zavq oladi. Balet spektaklini tomosh qilar ekanmiz, qatnashuvchilarning raqsiga mahliyo bo'lamiz. Operani tinglab o'tirib ovozlari sehdan zavqlanamiz. Odamlar hayotda raqs va qo'shiq vositasida munosabatda bo'lmasliklarini juda yaxshi bilgan holda, raqs yoki ariyalar orqali inson hayoti, uning kechinmalariga sherik bo'lamiz. Aynan raqs uchun balet spektakliga, ariya tinglash uchun opera boriladi.

Qo'g'irchoq teatriga kelsak, avvalo qo'g'irchoq orqali birorta obraz talqin etilishini tomosha qilgani boriladi. Qo'g'irchoq jonli, tirik aktyorga nisbatan ramziy ekanligini, odamga yoki biror jonivorga aynan o'xshash belgilari juda kam bo'lishini ham yaxshi bilganimiz holda, biz qo'g'irchoqni tomosha qilamiz, uning tirilishi, mo'jizasini ko'ramiz, undan zavq olamiz. Xatti-harakatlariga, insoniy tuyg'ularga ishonitirish kuchiga mahliyo bo'lamiz.

2.1. Aktyor va qo'g'irchoqning xatti-harakatlari o'rtasidagi funksional aloqadorlik

Bir qarashda inson xatti-harakati frazeologiyasi nuqtai-nazardan odatga, ko'nikmaga aylanib ketgan harakat stereotiplari butunlay o'zgargandek tuyuladi. Dramatik teatr aktyori bilan qo'g'irchoq teatri aktyorining

mushak apparatining oddiy jismoniy harakati qiyosida taqqoslab ko'ramiz. Aytaylik, dramatik aktyor sahnaviy voqealar davomida o'tirishi zarur. Shunga muvofiq harakatga keltiruvchi buyruq dastlab miyada tug'iladi. Bunday da'vat markazga intiluvchi nerv orqali markaziy asab sistemasiga boradi va undan markazdan tarqaluvchi harakat tomirlariga o'tadi. Bu tomirlar bo'ylab yelka, bo'ksa, oyoq va tananing boshqa qismlaridagi mushaklar harakatga keladi. Zarur mushaklarning uzayishi yoki qisqarishi bosh miya bergan buyrug'i bilan bajariladi. Reflektorli yoy egiladi, ya'ni odam o'tiradi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorida bu refleks jarayonining birinchi qismi drama aktyorida qanday bo'lsa, shunday kechadi, biroq yakun farqlanadi. Asab tomirlari orqali bajariladigan holatni aktyor emas, balki qo'g'irchoq amalga oshiradi. Qo'g'irchoqning o'tirishi uchun mutlaqo boshqacha fiziologik xatti-harakat amalga oshiriladi. Ya'ni yelka, qo'l, bilak, tirsak, barmoq mushaklari harakatga keladi. Natijada, qo'g'irchoq istalgan holatga muvofiqlashtiriladi.

Qo'g'irchoq-aktyor tanasida qanday jarayon kechadi? Aktyor va sahnaviy personaj, ya'ni qo'g'irchoq xatti-harakatlari orasida funksional (vazifaviy) aloqa doimiy ravishda yuz beradi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori tanasida fiziologlar va sportchilar iborasiga ko'ra ideomotor akti yuz beradi. Harakat haqidagi fikr mushaklarning juz'iy torayishlari, qisqarishlari bilan barobar kechadi. "Aktyorning ongida va qo'g'irchoq plastikasi vositasida amalga oshadigan harakat, unga mas'ul mushaklarining juz'iy, ko'pincha tashqaridan sezilmaydigan torayishiga sabab bo'ladi. Aktyor sahnaviy zarur xatti-harakatni o'zidan o'tkazadi

va uni kuchaytirib, qo'g'irchoqqa beradi. Qo'g'irchoq sakraganda, chopganda, o'tirganda turli-tuman xatti-harakatlar qilganida, aktyor ham barcha harakatlarni o'zi qilayotgandek, biroq ko'rinmas, bilinmas darajada amalga oshiradi. Demak, aktyor qo'g'irchoq qilishi kerak bo'lgan ommaviy (P.V.Imonov Metod Stanislavskogo i fiziologiya emotsiy).

Harakatlarni o'z tajribasiga suyangan holda yoki kuzatishlariga tayanib, uning har bir detal, mayda-chuyda, ikir-chikirlarini o'zaro bog'liqlikda yodida saqlashi va amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Sahnaviy personajga xos hissiyotlarni aktyor qalbi bilan his etilishi – qo'g'irchoq teatri ijrochisi uchun zarur shart hisoblanadi. Bu hissiyotlarni aktyor qo'g'irchoqlarni turli rakurs, holat va harakatlarida, bir so'z bilan aytganda, uning plastikasi orqali ifoda qilishi kerak. Faqat shundagina sahnaviy personaj, qo'g'irchoqning har bir spektakldagi qattiq harakatining plastik belgilari namoyon bo'ladi, sahnaviy yashash tarzining xususiyatlari yuzaga keladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limida aktyorni tarbiyalash asosan K.S.Stanislavskiy sistemasi uslubiylati zaminida olib boriladi. Aktyorlarning qo'g'irchoq bilan mashqlari, albatta, aktyor psixotexnikasi elementlari Stanislavskiy sistemasiga asoslangan mashqlari jonli plan bilan parallel holda olib boriladi. Lekin bu jarayonda ikki xil mashqni o'zaro aloqadorligi, bir-biriga ta'sirini amalga oshirishda zarur me'yor aslo buzilmasligi kerak.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida qo'g'irchoq teatri aktyorlarini tarbiyalash ishi

boshlanganiga o'ttiz yildan ortiq vaqt o'tdi. Respublika qo'g'irchoq teatri, viloyatlar qo'g'irchoq teatrlarida oliygohni bitirgan sobiq talabalar teatr artistlarining aksariyatini tashkil qiladi. Biroq so'nggi yillarda, ayniqsa, viloyat teatrlarida maktab o'tagan mutaxassislar soni kamayib borayotgani tashvishlanarlidir. To'g'ri, oliygohda har yili qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limini bitirib chiquvchilar bo'ladi. Lekin ularning aksariyati viloyat teatrlariga borib ishlamaydilar. O'zlarini boshqa sohalarga urib ketayotganlar ham yo'q emas. Ammo, masalaning boshqa bir jiddiy tomoni bor.

Oliygoxda tahsil oldi, degani diplomli qo'g'irchoqboz aktyor teatrga yetib keladi va bu kasb uning kundalik mehnati, hayoti tarziga aylanadi, degani emas ekan. Yosh yigit-qiz bu fakultetga kirayotganida, kasbni tanlayotganida qalb amriga itoat qildimi, yoki boshqa sharoitlar sabab bo'ldimi, gap ana shunda. Ba'zan sharoit taqozosi bilan, aytaylik, drama bo'limiga yaroqsiz topilib yoki drama bo'limiga da'vogarlar ko'p bo'lib, tanlov kattaligi tufayli qo'g'irchoq bo'limiga kirib qoluvchilar ham uchrab turadi. Bunda talaba o'zida tub o'zgarishlarga erishmasa, qo'g'irchoqqa mehr-muhabbat tuyg'usini o'zida shakllantira olmasa, u san'atkor bo'la olmaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori boshqa janr aktyorlaridan farq qiluvchi, o'ziga xos tipdir. Boshqalardan farqlanishi uning kasb mahorati, qo'g'irchoq o'ynatilishi bilan chegaralanmaydi. U aynan boshqa tipdagi shaxs. Ma'lumki, o'zining san'atini, san'atkorligini, o'z qiyofasini jamiyatga ko'rsatishga intiluvchi shaxs (bu xususiyatning yomon tarafi yo'q, bu har bir artistning haqli istagi) shirma ortida uzoq o'tira olmaydi, zerikadi,

o'zini topmaydi. Demak, qo'g'irchoqboz aktyorning asosiy xislatlaridan biri kamsuqumlik, kamtarlikdir. Bunday fazilat, albatta boshqa janr artistlariga ham xos ekanligi shubhasiz, ammo bu fazilatlar drama teatrida va qo'g'irchoq teatrida turli mutanosibliklarda yuzaga chiqadi, aks etadi. Qo'g'irchoq teatri aktyori uchun uning o'zi emas, undan tashqaridagi mavjudot, uning ijro quroli-qo'g'irchoq va u bilan bog'liq vaziyat ko'proq ahamiyatga ega bo'lishi diqqatga sazovor. Shu bilan birga qo'g'irchoq teatri aktyoriga xos ko'rinmaslik bilan bog'liq kamtarlik juda faol, sermazmun mehnat, ijodiy izlanishlarga to'la bo'lishida, bu inson qo'g'irchoq san'atining odamimi, bunda o'zini topganmi, bir so'z bilan aytganda professionalmi yoki yo'qligi o'zini ko'rsatadi.

Umuman, aktyorlik san'atining eng teran tavsifi uning organikasi, uning qo'g'irchoqqa hayot bag'ishlay olishida namoyon bo'ladi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorining qo'llari – uning asab tolalari va jismoniy energiyasini qo'g'irchoqning plastik xatti-harakatlariga aylantiruvchi, shuur va hissiyotlarni yorituvchi o'ziga xos vositasidir. Barmoqlarning harakatlari, bilaklarning turli mashqlari, gipt yoki vagani boshqarishda barmoqlarning salgina nozik harakati tufayli qo'g'irchoq spektakli personajining emotsional holatida o'zgarishlar yuz beradi.

S.M.Mixoyes: "Fikrim barmoqlarim orqali yurishga o'rganib qolgan, obrazli ifodani o'zi topadi", – deb yozgan ekan.

2.2. Qo'rqopli qo'g'irchoqda yaratiladigan obrazlarning xususiyatlari

Taniqli san'atshunos olim, professor Muhsin Qodirov "Qo'g'irchoq teatri – san'atning ajoyib, ta'sirchan turlaridan biri. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi, qandaydir sodda, go'zalligi "mo'jizali" tabiatga ega bo'lishidadir. Boshqa paytda oddiy bolalar o'yinchog'idan farq qiladigan qo'g'irchoq san'atkor qo'liga qo'ndirgach, jonlanadi, nafas ola boshlaydi, tafakkur hosil qiladi, ya'ni rosmoana insoniy hayot bilan yashay boshlaydi", – deb yozgan edi. Olim bu yerda umuman qo'g'irchoq teatri ijrochilik imkoniyatlari kengligi haqida fikr yuritadi. Shunday bo'lsa-da, biz ushbu sermazmun mulohazada "san'atkorning qo'lida" iborasini san'atning umumiy tavsifi bo'lishi bilan birga uni bevosita aktyorning qo'li ma'nosini anglatuvchi ibora sifatida talqin qilishni lozim topdik. Binobarin, ushbu ilmiy ish mavzusi qo'rqopli qo'g'irchoq ekan, uning asosida aktyorning qo'rqop sifatida kiyib o'ynatiladigan, o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixida "qo'l qo'g'irchoq" deb atalgan qo'g'irchoq teatri tizimini nazarda tutamiz.

O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri "Chodir jamol"ning qahramonlari qo'l qo'g'irchoqlar bo'lgan. Hozirgi shirmaparda o'rnida qo'g'irchoqboz aktyorning beliga bog'lanadigan chodir aktyorning boshidan yuqoriga ko'tarilib, uning ichida aktyor qo'llariga kiydirilgan qo'g'irchoqlar chodir ustida harakatda bo'lganlar. Qo'g'irchoqlarni harakatga keltiradigan birdan-bir vosita aktyorning ikki qo'li, o'ng barmog'i bo'lgan. Ana shu qo'l va barmoqlarning san'ati qo'l qo'g'irchoqning asosi va mundarijasidir. "Chodir jamol"da belga boshi uzra o'yin maydoni hosil qiluvchi chodir bog'lab olgan

qo'g'irchoqboz tik turib, ba'zan cho'kka tushgan yoki uzala tushib yotgan holda, odatda boshi yog'ochdan ishlangan qo'g'irchoqlarni qo'llariga kiyib tomosha ko'rsatgan. Tili tagiga "pishiq" yog'och payrahadan yasalgan "safil" degan moslama qo'yib qo'g'irchoqlarga mos chiyildoq, o'tkir tovush hosil qilgan. An'anaviy teatrning ko'p xususiyatlari, ayniqsa qo'l mahorati, uni sayqallashtirish, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida ham uslubiy asoslarni saqlab qolgan. Qo'l qo'g'irchoq, demak aktyorning qo'liga kiyiladigan, qo'lqop turi bo'lib, rus teatrida "Petrushka" qo'g'irchoq'i atamasi keng tarqalgan. "Verxovaya" (tepa), ya'ni eskicha chodir, hozirgi shirmadan ko'rsatiladigan qo'g'irchoqlar insoniy hayajonlar, kechinmalarni teran ifoda qilish imkoniyatlariga ega. Shuning uchun ham zamonaviy, juda keng texnologik qudrati mavjud bo'lgan qo'g'irchoq teatrida qo'l qo'g'irchoq, demak, qo'lqopli qo'g'irchoq keng tarqalgan tur sifatida ma'lum.

Odatda ko'pgina qo'g'irchoqlarda barmoqlar qo'g'irchoq gavdasiga nisbatan ulkan panja sifatida qo'llaniladi. Qo'g'irchoq qo'lga kiydirilganda qo'lning o'zi (bilak) tanaga aylanib, qo'g'irchoqning boshi va qo'llari aktyorning barmoqlari orqali boshqariladi.

Qo'l qo'g'irchoqni ikkita keng tarqalgan uslubiyati ma'lum:

1) Ko'rsatkich barmoq qo'g'irchoqning boshiga, bosh barmoq va o'rta barmoq qo'g'irchoq kiyimining yenglariga kiritiladi. Jimjiloq va nomsiz barmoq kaftga bukiladi.

2) Ko'rsatkich va o'rta barmoqqa qo'g'irchoqning boshi kiydiriladi, bosh barmoq bir yengiga, jimjiloq va nomsiz barmoq ikkinchi yeng ichida bo'ladi.

Umuman, aktyorning qo'li qo'g'irchoq ichida turlicha jonlanadi va qo'l qo'g'irchoq xatti-harakatlari shunga muvofiq xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Qo'g'irchoqning "turish-turmushi" qo'g'irchoq boshqarish vositasiga bog'liq tarzda har xil bo'ladi.

Birinchi rasmdagi qo'g'irchoqning boshi old tomonga yengil harakat qila oladi. Ammo boshini u yoq bu yoqqa burish uchun butun gavdasi bilan harakat qilishi kerak bo'ladi.

Ikkinchi rasmda qo'g'irchoqning bo'yni birinchidagiga qaraganda qattiqroq, ammo u boshini har tomonga erkin burishi mumkin, buning boshga kiydirilgan barmoqlarini sal tebratsa yetadi. Ammo ikkinchi qo'g'irchoq narsalarni qo'lga olishda biroz qiynaladi.

Barmoqlarni uchinchi rasmdagidek ham joylashtirish mumkin. Bu holda qo'g'irchoq inson qiyofasiga ko'proq o'xshashi mumkin. Bu uslubning bir qiyinchiligi, kamchiligi shundaki, bukilgan jimjiloq ko'p mashq qilib pishitilmagan bo'lsa, qo'g'irchoqni boshqarishda muammolar tug'diradi.

To'rtinchi rasmdagi vaziyatda qo'g'irchoqning qo'llari erkin harakat qilish imkoniyatiga ega, chunki o'rta barmoq bilan birgalikda kaftga bukilgan. Ba'zan qo'g'irchoqlarni ikkala qo'lga kiydirilishi ham kuzatiladi. Qo'g'irchoqni ikki qo'l bilan boshqarishning turli usullari mavjud.

Ular **beshinchi, oltinchi** rasmlarda aks ettirilgan. Ularning har biri qo'g'irchoqning vazifasi mazmuniga bog'liq. Masalan, **beshinchi rasmda** qo'g'irchoq qo'llarining harakat imkoniyatlari keng, hatto panjalarini aylantira oladi.

Qo'l qo'g'irchoqning shundaylari ham uchraydiki, ular gavdasining yuqori qismi – boshi va tanasi bilan birlashib, yaxlit ko'rinishda bo'ladi. Qo'llari esa faqat tirsaklar vositasida harakatlanishi mumkin.

Yettinchi rasmda ana shunday qo'g'irchoq tasvirlangan. Bunday qo'g'irchoqlarni boshqarish usuli quyidagicha: bosh barmoq va jimjiloq qo'g'irchoqni qo'llari, qolgan uchta barmoqqa qo'g'irchoqning boshi va tanasi joylashgan bo'ladi. Bunday qo'g'irchoqning tanasi va qo'llari kam harakat qila oladi, ammo qo'g'irchoqlar yonida qo'llanishi mumkin. Ko'rinishidan bunday qo'g'irchoqlar simli qo'g'irchoqlarga o'xshab ketadi, lekin ularning afzallik tomoni ham bor, aktyor ikkita qo'g'irchoqni bir vaqtning o'zida ushlab turishi mumkin. Ular kam aktyorlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Lekin bunday qo'g'irchoqlar juda kam harakat qiladigan epizodik, mayda rollargagina mansub bo'ladi, aks holda simli qo'g'irchoqlar oldida ular harakatda ortiqchaliklari ko'zga tashlanishi va qiziqarsiz bo'lib qolishlari mumkin.

Qo'g'irchoqni shunga o'xshash boshqaruv usuli **sakkizinchi rasmdagi** holatda ham mavjud. Bunda qo'g'irchoqlar tez-tez qo'llaniladigan, teatrlarda ularni "tirsak qo'g'irchoq" deb ham atashadi. Bunday qo'g'irchoq bilan ishlaydigan aktyor barmoqlari qo'g'irchoq yengiga emas, ularga maxsus ishlangan qoplama ichiga kiritiladi. Qoplamalar qo'g'irchoq yengiga birlashtirilgan bo'lib, ichi paxta bilan to'ldirilgan bo'ladi. Bu qo'g'irchoq avvalgisiga qaraganda erkin harakat qilish imkoniga ega, lekin uning xatti-harakatida asl qo'lg'irchoq qo'g'irchoqqa nisbatan tabiiylik yetishmaydi va predmetlar bilan qiynalib ishlaydi. Harakatlarida ifodaviylik yetishmaydi.

Qo'l qo'g'irchoqlar turkumida guruhli qo'g'irchoqlar, orqa planda, ommaviy ko'rinishlarda qo'llaniladigan qo'g'irchoqlarni ham aytib o'tish joiz. **To'qqizinchi rasmdagi** kabi aktyorning har bir barmog'iga bittadan kichik qo'g'irchoqlar kiydirish yoki **o'ninchi rasmdagi** kabi qo'g'irchoqlarni bitta qo'lqopda birlashtirish mumkin bo'ladi. U holda ularni boshqarish ancha jonlanadi.

O'n birinchi rasmda uch obrazni birlashtirgan guruhli qo'g'irchoq aks ettirilgan. Aktyorning bosh barmog'i qo'g'irchoqni chap qo'lini chap tomonidan boshqarsa, jimjilog'i personajning o'ng qo'lini o'ng tomondan boshqaradi. Bunday qo'g'irchoqlarning boshqa qo'llari harakatsiz qoladi. Qo'g'irchoqlar tizimi ichida qo'l qo'g'irchoqlar eng jonlisi, inson yoki hayvonot xatti-harakatlari ifodali va emotsional bera oluvchi turi hisoblanadi. Zotan, qo'g'irchoq xatti-harakati erkinligi aktyor barmoqlari bilan amalga oshiriladi. Sevgilisini ehtiros bilan bag'riga bosish, raqibini boplab tarsakilash holatlarini hech qaysi qo'g'irchoq qo'l qo'g'irchoqdek ifoda qilolmaydi.

Qo'lqopli qo'g'irchoqni mahorat bilan boshqarish uchun ba'zi qoidalarni puxta o'zlashtirish va ularni har bir qo'g'irchoqning xizmat vazifasi, sahnaviy muhitidan kelib chiqib, qo'llay bilish kerak.

Professional ta'lim olgan va zarur tajriba, uquvga ega qo'g'irchoqboz qo'l qo'g'irchoq orqali mo'jizali obrazlar yaratishga qodir. Tajriba va o'quv ko'nikmalarga esa tinimsiz mehnat, treninglar va sahnaga oid adabiyotlarni puxta o'zlashtirish evaziga erishiladi. Qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limi talabasi uchun zarur

adabiyotlar ham, kafedrada shakllangan va qo'llanilib kelinayotgan samarali uslubiyat ham mavjud.

Adabiyotlar ichida K.S.Stanislavskiyning "Aktyorning o'z ustida ishlashi", T.P.Andreaning "Qo'g'irchoq teatrida aktyor treningi", Ye.V.Speranskiyning "Qo'g'irchoq teatri aktyori", "Sergey Obrazsov teatri", "Sankt-Peterburg katta qo'g'irchoq teatri" kabi asarlar, o'zbek san'atshunos olimi Muhsin Qodirovning "Milliy qo'g'irchoq teatri", Shermat Hayitboyev, Maryam Ashurovaning o'quv qo'llanma va kafedrada yaratilgan ko'pgina o'quv-metodik dasturlarni ta'kidlash lozim.

Qo'l qo'g'irchoqlardan o'zining tashqi ko'rinishlari bilan va boshqaruv usuli bilan farqlanuvchi sim qo'g'irchoq ma'lum darajada mexanizatsiyalashgan bo'lib, murakkab qurilmaga ega deyish mumkin. Aktyor qo'li, barmog'i katta-kichikligidan mustasno bo'lgan simli qo'g'irchoqlar ham aslida aktyordan qo'l mahorati yangi jihatlarini talab qiladi. Simli qo'g'irchoq inson obraziga ko'proq o'xshash bo'lgan qiyofalarni gavdalantirishi mumkin. Simli qo'g'irchoq qo'llar kafti, bilaklari, tirsakdan yuqori qismda ham harakatlana oladi. Maxsus moslama vositasida qo'g'irchoqning bosh qismi tanasidan mustaqil ravishda burilishi, turli xatti-harakat qilish imkoniyatlari bor. Demak, simli qo'g'irchoq turli muqomlar qiladi, insonning nozik va murakkab xatti-harakatlarini aniq va o'xshash aks ettira oladi.

O'n ikkinchi rasmda qo'g'irchoqbozning ikkala qo'li simli qo'g'irchoqni boshqaruvidan bir namuna aks ettirilgan. Bir qo'g'irchoqning murakkab vaziyatdagi harakatlarini bir va bir necha aktyor birgalikda amalga oshirishlari ham mumkin. Simli qo'g'irchoq inson

harakatlarida turli xususiyatlarni, masalan, go'zallikni aks ettirish, uni nafosatli qilishi mumkin. Yoki, spektakldagi vaziyat, obrazning xarakteridan kelib chiqib aksincha, salbiy tomonlarni ham ishonarli chiqarsa bo'ladi. Simli qo'g'irchoqning qo'llari simlar yordamida, boshi esa maxsus moslama (Gabit) deb ataluvchi maxsus tutqich bilan boshqariladi. Spektaklning g'oyaviy badiiy rejasini teranroq amalga oshirish, obrazlarning murakkab xarakterlari va xulq-atvorlarini badiiy jozibali yaratish yo'lida rassomlar va konstruktorlar doimiy ijodiy izlanishda bo'lib qo'g'irchoqlar asosiy tizimlari, jumladan, simli qo'g'irchoq turlarini yangi-yangi imkoniyatlarini kashf etishda, unga sayqal berishda davom etaveradilar.

XULOSA

Bizga ma'lumki, qo'g'irchoq teatri teatr san'atining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, milliy qo'g'irchoq teatri tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mana shu milliy qo'g'irchoq teatri shakl va tamoyili bilan oddiy xalqni o'ziga jalb qila olgan. Tomoshalar asosan xalq sayillari va (xatna to'ylarda) to'ylarda namoyish etilgan.

Qo'g'irchoq teatri – bu shunchaki tomosha, shunchaki ermak o'yin emas, balki butun bir xalqning falsafasi, dini, adabiyoti, folklori, tasviriy san'ati, qadriyati va albatta, tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy hodisadir.

Qo'g'irchoq teatri – san'atning ajoyib, ta'sirchan turlaridan biridir. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi qandaydir sodda, go'zalligi "mo'jizali" tabiatga ega ekanligidadir.


Darhaqiqat, jonsiz, zabonsiz oddiy qo'g'irchoqlar vositasida inson hayoti, munosabatlari, axloqi, odatlarini badiiy haqqoniy va jozibali qilib namoyish etish mo'jizaga o'xshaydi. Qo'g'irchoqboz bamisoli mo'jizakordir.

Qo'g'irchoq teatrining sharti shuki, kasbni sevsang, ovozing jarangdor va mahorating zo'r bo'lsa xohlagan rolingni o'ynayver. Iste'doding, ijodiy harakating va shavqing bo'lsa bas! Ikkitagina qo'g'irchoqboz muvaffaqiyati bilan ko'plab qahramonli katta spektaklni namoyish qilish mumkin. Bugungi kunga kelib qo'g'irchoq teatri aktyorlarini yetishtirib beruvchi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida aktyorlik mahorati predmeti bilan birga qo'g'irchoq boshqarish texnologiyasi san'ati ham alohida o'rin tutadi. Bunda ustozlarimiz aktyorlik mahorati darsida ko'proq qo'g'irchoqning texnik

mukammalligini va undan bahra oladigan darajada ijodiy erkinlikni ta'minlash, ta'sirchanligi qudratini oshirish, qo'g'irchoq teatri san'ati ijrochiligida yangi qirralarni kashf etish va zabt etish, ifodalash va ijro imkoniyatlarini rang-barangligini, mustahkamlash va boyitish, diqqat, iroda qudratini mustahkamlab borish, jonsiz predmet bilan oshno bo'la bilish, uni sevish, chuqur his eta olish, betakrorlik, xotirani chiniqtirish mashqlari, talaffuzning tozaligi, ovoz jarangini sozlash mashqlariga alohida e'tibor bergan holda ish olib boriladi.

Qo'g'irchoq teatrida shuningdek adabiy til qudratini his etish, hayrat va quvonch beruvchi manbaga aylantirish, sehr, zavq tuyg'usini his etish va ettirish qudratini rivojlantirish kerak. Ko'rinib turibdiki, tobora yuksalayotgan taraqqiyot cho'qqilarini mustahkam egallayotgan jahon hamjamiyatining kino, teatr, estrada, qo'g'irchoq san'atlari maktabi doirasida bizning teatr san'ati maktabimiz o'zining nufuzi, salohiyati, izchilligi, ijodiy izlanishlari bilan raqobatbardosh san'atga aylanishi uchun qator ichki imkoniyatlarga ega, deb ayta olamiz. Bular ichida qo'g'irchoq teatrining rivojlanishi shart-sharoitlari alohida ahamiyatga ega. Bu xalqimizning bolaparvarligi va bolajonlarimizning qo'g'irchoq teatrini bolalik mehri va qiziquvchanligi bilan sevishidir. Qolaversa, viloyatlarimizda yoshlar orasida qo'g'irchoq teatri san'atiga qiziqish, e'tiqod, intilish ancha kuchli. Bu har yili institutimizga qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limiga hujjat topshirayotgan abituriyentlar sonida ham ko'rinadi. Qo'g'irchoq o'ynatishdan oldin aktyor voqeani o'zida kechirib, keyin qo'g'irchoqqa o'tkazadi. Spektaklni jonli chiqishida, albatta, aktyorlarni ijro mahorati alohida o'rin tutadi. Xullas, spektakllarni dunyoga kelishida


rejissyor, rassom, bastakor, qo'g'irchoq ustasi, aktyorlar birdamligi, yakdilligi shunday namoyon bo'lib turibdi. Aktyor, rejissyor bilan tomoshabin o'rtasidagi ko'priq hisoblanadi. Rejissyor asarni yaxshi sahnalashtirgani bilan aktyor ijrosi xom bo'lsa, spektakl yaxshi chiqmaydi. Rejissyor spektakl sahnalashtirish jarayonida birinchi navbatda, aktyor tanlashda adashmasligi kerak. Spektaklda hamma narsa o'z o'rnida bo'lsa, muallif nima demoqchi bo'lganini o'zbek qo'g'irchoq teatri ustalari ko'ngildagidek yaratib, tomoshabinga yetkazib bera oladilar.



1-rasm

Qo'لاقopli qo'g'irchoqning jismoniy mashqi


Chodirda qo'g'irchoq paydo bo'ladı. Qo'g'irchoq tik turgan holda qo'llarini ikki tomonga ochib, oldinga egiladi. So'ng dastlabki holatiga qaytadi. Xuddi shu harakat o'ng va chap tomonga ham takrorlanadi.



2-rasm

Qo'لاقopli qo'g'irchoqning jism bilan harakatlanish mashqi


Qo'g'irchoq chodirda paydo bo'ladı. Uning qo'llari pastda, biriktirilgan holda. So'ng qo'g'irchoqning bosh harakati jismga yo'naltiriladi. Qo'llarini ikki tomonga ochib, orqaga yo'naltiriladi. Bu mashqda qo'g'irchoqning harakati qisqa va aniq bo'lishi kerak.



3-rasm

O'rmonda adashib qolgan odam


Qo'g'irchoq chodirda paydo bo'ladi va bor bo'yi bilan atrofni kuzata boshlaydi. So'ng qo'llarini og'zi tomonga olib kelib, baqiradi. Bu harakat har tomonga qaytarilishi mumkin.



4-rasm

Qo'g'irchoqning ariqdan sakrab o'tish mashqi


Chodirda qo'g'irchoq paydo bo'ladi va chodir yoniga yurib, harakat boshlaydi. U yo'lda ariq borligini ko'rib, baholaydi. So'ng orqaga tislanib, oldinga yuguradi va ariqdan sakrab o'tadi. Ushbu mashq bir necha marta takrorlanishi kerak.



5-rasm

Qo'g'irchoqning koptok o'ynash mashqi

Qo'g'irchoq qo'lida koptok bilan chodirda paydo bo'ladi. Koptokni asta-sekin yuqoriga otib, qo'llari bilan ushlab oladi. Bu mashqni bir necha bor qaytarish kerak.



6-rasm

Qo'g'irchoqning qo'rqqandagi holati


Qo'g'irchoq chodirda paydo bo'ladi va harakatsiz holatda orqaga buriladi. Shunda uning qo'llari ikki tomonga ochiladi. So'ng orqaga yurib, boshini ushlagan holda oldinga egiladi.



7-rasm

Qo'g'irchoqning chodirdan foydalanishi


Ko'p hollarda qo'g'irchoq uchun kursi yoki pollardan foydalaniladi. Chodirda qo'g'irchoq paydo bo'ladi. Qo'g'irchoq oldinga egilib, asta-sekin o'tiradi. So'ng chodirga yotib oladi, sudralgan holatda oldinga harakat qila boshlaydi. Bu mashq chodirni butun uzunligi bo'yicha bir necha marta qaytariladi.



8-rasm

Qo'g'irchoqning rekvizit bilan mashqi


Qo'g'irchoq ikki qo'li bilan yog'ichni ushlagan holatda chodirda paydo bo'ladi. Qo'lidagi hassani bir qadam oldinga tashlaydi, so'ng o'zi harakat qiladi. Bu harakat bir necha marta qaytariladi.



9-rasm

Qo'lqopli qo'g'irchoqning jismlar bilan ishlashi

Qo'g'irchoq chodirda supurgi bilan paydo bo'ladi. Supurgini ikki qo'lini birlashtirib, ushlab oladi. O'ng va chap tomonga qarab harakat boshlaydi. Xuddi yerni supirayotgandek. Ushbu mashq bir necha marta qaytarilishi kerak.



10-rasm

Qo'g'irchoqning chodirda o'tirib-turish mashqi

Chodirda qo'g'irchoq paydo bo'ladi. So'ng chodirga o'tirish joyini belgilab, olinga – 90 gradusga egilib, so'ng orqasini chodirga tekkizadi va qaddini rostlaydi. Oyoqlarini oldinga tushirib, o'tirib oladi.

“CHODIR JAMOL”

*Muallif va sahnalashtiruvchi rejissyor:
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sh. Yusupov.*

Buxoro qo‘g‘irchoq teatrida 1989-1990 yillarda sahnalashtirilgan.

Sahnaga o‘zbek so‘zanalari bilan bezatilgan chodir, aravada uch kishi, korfarmon, qiziqchi va masxaraboz kirib keladi va atrofdagilarni tomoshaga chorlay boshlaydi.

Bor-xo, kel-xo, xamalam-xo,
Yo‘l qayda, yo‘lni topib kel.
Tezda chopib kel,
Otang bilmasin, onang bilmasin.
O‘ynagani kel, quvnagani kel,
Tomoshaga kel!

(Korfarmon barchani tomoshaga chorlaydi):

Shiqqillama shiq-hey, shiqqillama shiq,
Ram-ram jup-he, shiqqillama shiq,
Shiqqillama, shiqqillama, shiqqillama shiq.
Ram-ran jup-hey, shiqqillama shiq.

Masxaraboz:

-Afandi-yu, qozivoy,
Elu yurtidan rozivoy.
Kachal polvon, Bichixon,
G‘ubor solmay dillarga,
Boqib o‘ngu so‘llarga,
Kelingiz shosha-shosha,
Boshlandi tomosha.

Korfarmon: Kunlarning birida Kachal polvon bilan uning xotini Bichixon bir eshak sabab shartlashib qolishibdi...

(so'rida Kachal polvon va uning xotini Bichixon uxlab yotibdi).

Kachal polvon: – Bichixon, hoy Bichixon!

Bichixon: – Ha, ha.... Uxlagani qo'yasizmi yo'qmi?

Kachal polvon: – E quyosh tikka kelib qolibdi-ku. Peshin bo'lay deпти, tur tezroq.

Bichixon: – Voy, hozir (*kerishadi*).

Kachal polvon: – Hoy, beri kel, yelkamni qashlab yubor. (*Bichixon qashlaydi*). Endi esa eshakka suv ber, yem ber, ochidan o'lay degandir. Men hozir kelaman.

Bichixon: – Nimaga hadeb men eshakka qarayman.

Kachal polvon: – Kim qaraydi bo'lmasa?

Bichixon: – Siz-chi???

Kachal polvon: – Men? Nima urf-odatlarimizni unutdingizmi? Ko'chadagi ishlarni men qilaman. Uydagi ishlarni sen qilasan.

Bichixon: – Eshakni siz minasiz, men emas. Shuning uchun siz yem bering.

Kachal polvon: – Yo'q. Eshakka men minsam ham, unga ortib kelingan qovun-tarvuz, un, uzumni siz ham yeysiz-ku.

Bichixon: – Men pishirgan ovqatni siz ham yeysiz-ku.

Kachal polvon: – Yesam yebman-da. Nima qilibdi, ochdan o'laymi?

Bichixon: – Shuning uchun eshakka siz yem berasiz.

Kachal polvon: – Bo'ldi, bo'ldi. Bir shart bor. Hadeb urishavermasdan shu shartga ko'nsang bas, olam guliston.

Bichixon: – Xo'p, qanaqa shart?

Kachal polvon: – Uch kungacha gaplashmaymiz. Kimki, shu uch kun ichida birinchi bo‘lib gapirsa, o‘sha eshakka yem beradi.

Bichixon: – Bo‘pti, roziman. Yutqazdim, deyavering.

Kachal polvon: – Podadan oldin chang ko‘tarma. Ko‘ramiz hali.

(Kachal polvon va Bichixon bir chekkada teskari o‘girilib jim o‘tirishadi, shu payt sahnaga Korfarmon kirib keladi).

Korfarmon: – Assalomu alaykum, Kachal polvon, Bichixon yanga! *(ular javob qilishmaydi).*

Korfarmon: – Nima gap o‘zi? Og‘zingizga talqon solganmisizlar yoki nos chekkanmisizlar-a? *(Kachal polvon bosh silkitadi).*

Korfarmon: – Mayli gapirmasangiz gapirmang. Faqat bir savolga javob beringlar. Eshagingizni rangi qoramidi? *(Kachal polvon bosh silkitadi).*

Korfarmon: – Quloqlari uzun, to‘g‘rimi? *(Kachal polvon bosh irg‘aydi).*

Korfarmon: – O‘ng oyog‘i ola-bula. Shundaymi? *(Kachal polvon bosh irg‘aydi).*

Korfarmon: – O‘sha eshakni men ko‘rdim. Bir notanish kishi eshagingizni sizning hovlingiz tomondan minib kelayotgan ekan. Men esa undan “Hoy amaki, bu Kachal polvonning eshagi emasmi?”, deb so‘radim. U esa, “Bu eshakni o‘sha kishidan arzon narxda sotib oldim”, dedi. U menga bir-ikki tanga ham hadya qildi. Keyin “Meni ko‘rganingizni hech kimga ayta ko‘rmang”, dedi. Shunga shubhalanib, oldingizga yugurib keldim. Hovlingizga kirsam, eshagingiz haqiqatdan ham yo‘q ekan. Kachal polvon, eshagingizni sotganingiz rostmi?

Kachal polvon: – Eshagimni sotganim yo‘q. Nega sizga pul beradi? Qancha berdi?

Bichixon: (*chapak chalib yuboradi*). Gapirdi, gapirdi. Eshakka endi o‘zingiz qaraysiz.

Kachal polvon: – Yo‘q eshakni nimasiga qarayman, padarla’nati.

Korfarmon: – Nima, hazillashdim. Qoyil, hazilingiz bor bo‘lsin. Gapingiz chin bo‘lsa, qani doirani chaling. Bir o‘ynab-kulaylik. Eshakka qarash bo‘lsa bir gap bo‘lar. (*Doira chalinadi. Ikkalasi bir biriga hamohang bo‘lib raqsga tushadi*).

Korfarmon: – Buxoroda bo‘lganmisiz? U yerdagi Arku minoralari, madrasa-yu masjid, qo‘rg‘onlarini ko‘rganmisiz? Men har kuni Buxoroni qoq markazida Minorai Kalonni yonidan o‘tsam ikki bekorchini o‘tirganini ko‘raman. Qani, ko‘raylik-chi, ular hozir nima qilishayapdi ekan.

Korfarmon: – Assalomu alaykum!

Ikkalasi: – Vaalaykum assalom! (*Korfarmon sal uzoqlashadi*).

Birinchi kishi: – Nega sen alik olding? Axir bu odam menga salom berdi-ku.

Ikkinchi kishi: – Yo‘q, senga emas, menga salom berdi.

Birinchi kishi: – Yolg‘on aytayapsan. Hozir shu odamni chaqirib, kimga salom berganini bilamiz.

Ikkinchi kishi: – Bo‘pti, hoy, birodar, bu yoqqa qarang. (*Korfarmon ularning oldiga yaqinlashadi*).

Korfarmon: – Nima deysizlar?

Birinchi kishi: – Xo‘sh, siz salomni kimga berdingiz. Mengami yoki ungami?

Korfarmon: – Kim ko‘p ahmoq bo‘lsa, o‘shanga.

Birinchi kishi: – Men ko‘p ahmoqman.

Ikkinchi kishi: – Men sendan ham ko‘proq ahmoqman.

Korfarmon: – Bo‘lmasa, bunday. Men sizlarni qay darajada ahmoq ekanligingizni tekshirib ko‘raman. Kelishdikmi?

Ikkalasi: – Kelishdik, kelishdik.

Korfarmon: – Birinchi shart. Kim yaxshi qo‘shiq aytsa, o‘sha ko‘p ahmoq. Qani, boshladik!

(Doira chalinadi. Ikkovlon qo‘shiq aytadi).

Korfarmon: – E, qoyilman. Ana endi menga aytinglar-chi, qo‘shiq aytib, raqsga tushgan odamni kim ham ahmoq deb ayta oladi?!

Ikkinchi kishi: – O‘zingiz aytdingiz-ku?

Birinchi kishi: – Bizni ko‘p ahmoq qilmang.

Korfarmon: – Men sizlarni ahmoq qilganim yo‘q, sizlar o‘zingiz ahmoq qilyapsiz. Kimki bekor o‘tirsas, o‘sha ahmoq. Ahmoq bo‘lmayin degan kishi hech bo‘lmaganda, qo‘shiq aytib, raqsga tushadi. Men sizlarni ahmoqgarchilikdan qutqaray dedim.

Birinchi kishi: – Unda biz sizga salom beramiz. Assalomu alaykum!

Ikkinchi kishi: – Assalomu alaykum!

Korfarmon: – Vaalaykum assalom! *(Doira chalinadi, ko‘rinish yakunlanadi).*

Korfarmon: – O‘zbek xalqining sevimli qahramonlaridan biri Xo‘ja Nasriddin kunlarning birida eshagini sotish uchun bozorga boribdi.

Afandi: – Kelib qoling, kelib qoling, eshagimni sotaman. Bu eshak emas, uchqur lochin deysiz, kelib qoling, kelib qoling, minganlar darmonda, minmaganlar armonda!!!

(Sahnaga mulla kirib keladi. Afandi yanayam balandroq baqiradi).

– Eshakni olsangiz, baraka topasiz. Ming kilo yuk ko'taradi. Chopishda otni ortda qoldiradi. Hangrasa, bulbuldan ham yoqimli ovozi bor.

Mulla: – Nasriddin Afandi! Eshakni ta'rifini toza oshirib yubordingiz-ku!

Afandi: – Ishonmaysizmi? Mana, qarang. Ko'rinishi kiyikdan ham go'zal. Gijinglagan toy deysiz.

Mulla: – Afandi! Xo'p narxini ayting.

Afandi: – Narxi ot bilan tuya bo'larmidi. Bor-yo'g'i o'n besh tanga.

Mulla: – Ko'p qimmat narx aytdingiz. Bozorda bunday narx yo'q-ku!

(Mulla ketmoqchi bo'ladi. Afandi eshagining qulog'ini chimchilaydi. Eshak hurkib mullani tepib yuboradi).

Mulla: – U, padarla'nati, bu nimasi?

Afandi: – Shoshmang, shoshmang nima dedingiz?

Mulla: – Eshitganingiz.

Afandi: – Nima, siz podshohimizga qarshimisiz?

Mulla: *(shoshib)* – Yo'g'-e, nega qarshi bo'larkanman?

Afandi: – Siz podshohimizga qarshi ekansiz. Bu eshakning zoti, nasl-nasabini kimligini bilasizmi? Bu eshak podshohimizning eshaklari bilan xolavachcha bo'ladi. Siz podshohi olam eshaklarining avlodini haqorat qildingiz. Sizni hozir mirshabga topshiraman. Hoy, mirshab, mirshab!

Mulla: – Shoshmang, taqsir. Keling, kelishaylik...

Afandi: – Yo'q, siz bu haqorat uchun javob berasiz.

Mulla: – Afandim, siz eshakni sotmoqchisiz, shundaymi?! Men eshagingizni sotib olaman. Kelishdikmi?

Afandi: – Xo‘p, mayli. Ammo endi eshak yigirma tanga.

Mulla: – Afandim, axir siz...

Afandi: – Yo mirshabni chaqiraman. Yo haqorat uchun yuz tanga to‘laysiz, tanlang, qaysi biri arzon?

Mulla: – Mayli, afandim, roziman. Siz nima desangiz shu. Mana, yigirma tanga, oling. (*Afandi yigirma tangani olib, eshakni mullaga beradi. Mulla eshakni yetaklab chiqadi, Korfarmon kiradi*).

Korfarmon: – Ha, Afandim, muncha xursandsiz?!

Afandi: – Mullaga eshagimni yigirma tangaga sotdim. Bu qurumsoq qo‘shnimni uyida bir oy ishlatib, pulini yarmini ham bermagan edi. Men eshagimni unga ikki barobariga sotib, pulni undirdim. Eshagimni o‘zi ikki kundan keyin uyga qaytib keladi. A, labbay...

Yorim ketaman deydi,

Ketkizgani qo‘ymayman.

Yo‘llariga chim bosib,

O‘tkizgani qo‘ymayman.

(*Shu payt kampir paydo bo‘ladi va unga mahliyo bo‘lib, qiziqchi uning yo‘lini to‘sa boshlaydi. Kampir paranjisini olib unga qaraydi, uning yuzini ko‘rgan qiziqchi behush bo‘lib yiqiladi*).

Korfarmon: – Qoshing bilan imlaysan, ko‘zing bilan ovlaysan. Endi esa sizlarga dor o‘yinlaridan namunalar ko‘rsatamiz. Balandligi yuz metrli dorga masxaraboz chiqadi va o‘z mahoratini ko‘rsatadi. Qani, marhamat!

(Doira chalinadi. Masxaraboz qiliq qilib dor ustiga chiqadi)

– Hoy, masxaraboz yuqoridan nimalarni ko'ryapsiz?

Masxaraboz: – Menga tikilib turgan chiroyli ko'zlar ko'rinyapti.

Korfarmon: – Masxaraboz! Hoy, Masxaraboz!

Masxaraboz: – A, labbay?!

Korfarmon: – Dorbozlik ota san'ati ekanini namoyish qiling! Dorning u tomonidan bu tomoniga yugurib o'ting. Tomosha qilamiz.

Masxaraboz: – Xo'p bo'ladi!

Korfarmon: – Barakalla, barakalla. Yashang. Endi tomoshabinlarni hayron qoldirib, ham oldinga ham orqaga umbaloq oshib bering-chi. Qani, birgalashib tomosha qilamiz!

Masxaraboz: – Xo'p bo'ladi!

Korfarmon: – Endi esa ko'zini mahkam bog'lab dorni u tomonidan bu tomoniga o'tadi. Diqqat bilan tomosha qilamiz. *(Masxaraboz ko'zini mahkam yumib dorning u va bu tomoniga o'tadi).*

Masxaraboz: – Korfarmon, hoy, Korfarmon! Bo'ldi, hozir shu yerdan pastga qarab sakrayman.

Korfarmon: – Hoy-hoy to'xta, tag'in oyog'ing sinib qolmasin!

Masxaraboz: – Qo'rqmang, sinmaydi. Qani, sanang!

Korfarmon: – Bir... ikki... uch...

(Masxaraboz pastga sakraydi).

Korfarmon: – E, qoyil, qoyil. Qani, qarsaklar....

**Qo'lgopli qo'g'irchoq aks etgan
“Chodir jamol” spektaklidan lavhalar:**



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘.M.E. ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: O‘zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘grisida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2001-yil 21-sentyabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Istiqlol va milliy teatr. To‘plam. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
6. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Qodirov M. Xalq qo‘g‘irchoq teatri. – T.: 1972.
8. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
9. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – T.: O‘qituvchi, 1981.
10. Qodirova S. Teatrda hayot aksi. – T.: San’at jurnali nashriyoti, 2011.
11. Деммени Е.С. Призвание – кукольник. – Л., 1986.
12. Калмановский Е. Театр кукол – день сегодняшний. – М.: Искусство, 1977.
13. Смирнова Н.И. В театре кукол. – М., 1978.
14. Соломоник И.Н. Традиционный театр кукол Востока. – М.: Наука, 1983.
15. Образцов С.Е. Моя профессия. – М.: Искусство, 1981.

16. Смирнова Н.И. Искусство играющих кукол. – М.: Искусство, 1983.

17. Некрылова А.Ф. Русские народные праздники, увеселения и зрелища (конец XVIII века – начало XX века). Санкт-Петербург.: Азбука-классика, 2004.

18. Сперанский Е.В. Актер театра кукол. – М.: ВТО, 1965.

19. В профессиональной школе кукольника. Сб.статей.1973.

MUNDARIJA:

KIRISH	3
--------------	---

I BOB

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN‘ATINING XUSUSIYATLARI

1.1.Qo‘g‘irchoq teatri – inson madaniyatining muhim qismi	9
1.2. Teatr qo‘g‘irchog‘i	13
1.3.Repertuar tanlash	16
1.4.Plastika va uning qo‘g‘irchoq teatridagi o‘rni.....	20
1.5. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoqning qo‘l plastikasi bilan bog‘liqligi	22

II BOB

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORI KASBINING ALOHIDA XUSUSIYATLARI

2.1. Aktyor va qo‘g‘irchoq xatti-harakatlari o‘rtasidagi funktional aloqadorlik	24
2.2. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoqda yaratiladigan obrazlarning xususiyatlari.....	29
Xulosa	36
“Chodir jamol”	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	54

“Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati” kafedrası
o‘qituvchilari

Mirsaidova Nilufar
O‘taganov Ravshan

QO‘G‘IRCHOQ BOSHQARISH **ASOSLARI**

(Qo‘lqopli qo‘g‘irchoq)
O‘quv-uslubiy qo‘llanma

Muharrir:	O. Tursunova
Texnik muharrirlar:	N.Irgasheva
Rassom:	Axunova Liliya
Sahifalovchi:	U.Hasanova

Bosishga ruxsat etildi 26.10.2015 Ofset qog‘ozi.

Qog‘oz bichimi 84x108 1/16

Times New Roman garniturası. Shartli bosma tabog‘i 3.5.

Nashr. Hisob tabog‘i 3.2. Adadi 50 buyurtma. №10-04

“ZAMON POLIGRAF” OK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri Yunusobod tumani

Bobodehqon mahallasi, 45-uy

